



XORIJIY SARMOYALARNI JALB QILISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA MAVJUD MUAMMOLARNI HAL ETISH MEKANIZMLARI

Mamatqulov Bekzod

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi*

ORCID: 0009-0004-2019-222X

bekzodmamatkulov4444@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari va mavjud muammolar tahlil qilingan. Tadqiqotda asosiy e'tibor investitsion muhitni yaxshilash, xorijiy sarmoyadorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar va ularni takomillashtirish yo'nalishlariga qaratilgan. Shuningdek, yetakchi xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida O'zbekiston uchun samarali mexanizmlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, iqtisodiy islohotlar, investitsion siyosat, erkin iqtisodiy zona, sarmoya, tajriba, mexanizm.

МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ И РЕШЕНИЯ СУЩЕСТВУЮЩИХ ПРОБЛЕМ

Маматкулов Бекзод

*Академия государственной политики и управления
при Президенте Республики Узбекистан*

Аннотация. В статье проанализированы механизмы привлечения иностранных инвестиций и существующие проблемы в Узбекистане. Исследование сосредоточено на вопросах улучшения инвестиционного климата, создании благоприятных условий для иностранных инвесторов и определении направлений их дальнейшего совершенствования. Кроме того, на основе опыта ведущих зарубежных стран предложены эффективные механизмы, применимые для Узбекистана.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, инвестиционный климат, экономические реформы, инвестиционная политика, свободная экономическая зона, капитал, опыт, механизм.

MECHANISMS FOR IMPROVING THE SYSTEM OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS AND SOLVING EXISTING PROBLEMS

Mamatkulov Bekzod

*Academy of Public Policy and Management
under the President of the Republic of Uzbekistan*

Abstract. The article analyzes the mechanisms of attracting foreign investments and existing challenges in Uzbekistan. The research focuses on improving the investment climate, creating favorable conditions for foreign investors, and identifying directions for their further enhancement. In addition, based on the experience of leading foreign countries, effective mechanisms suitable for Uzbekistan are proposed.

Keywords: *foreign investments, investment climate, economic reforms, investment policy, free economic zone, capital, experience, mechanism.*

Kirish.

Xorijiy investitsiyalar O'zbekiston iqtisodiyotining modernizatsiyasi va tarmoqlarni diversifikatsiya qilish jarayonida muhim o'rin tutadi. Ular nafaqat kapital oqimining asosiy manbai, balki ilg'or texnologiyalarni, innovatsion boshqaruv tajribasini hamda xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini olib kiruvchi omil sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda rivojlanayotgan davlatlar uchun xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etish va ularni oqilona yo'naltirish iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlovchi strategik ustuvor yo'nalishlardan biri sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi doirasida investitsion muhitni yanada yaxshilash, sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va iqtisodiyotning ochiqligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2025-yilning birinchi choragida mamlakatga 8,7 milliard AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiya va kreditlar jalb qilingan bo'lib, bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 7,9 foizga o'sishni tashkil etgan. Ushbu natijalar O'zbekistonning xalqaro moliyaviy hamkorlikni kengaytirish, sarmoyadorlar ishonchini mustahkamlash va investitsion siyosatning samaradorligini oshirish yo'nalishida izchil harakat qilayotganini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar sharhi.

Amonboev (2024) o'zining *Analysis of foreign investments absorbed in Uzbekistan in 2022-2023 and their role in the economy* nomli tadqiqot ishida 2022–2023 yillardagi O'zbekistonda jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmini va iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qiladi. Muallif aralash metodologiya (miqdoriy + sifatli) yordamida investitsiyalar oqimining infratuzilma va mehnat bozori salohiyatiga ta'sirini ko'rib chiqadi. Shuningdek, investitsiyalarni jalb qilishda hududiy va sektoriy farqlar ham aniqlanadi. Xulosa qilib, Amonboev investitsiya siyosatida inkluzivlik va maqsadli sektorlarni qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydi.

Anvarovich (2023) o'zining *"Key factors attracting foreign investment to Uzbekistan"* nomli ilmiy ishida O'zbekistonda xorijiy sarmoyalarni jalb qilishga ta'sir etuvchi omillarni tizimli tahlil qiladi. Tadqiqotda tabiiy resurslar salohiyati, soliqqa oid islohotlar, makroiqtisodiy barqarorlik va mehnat resurslarining arzonligi asosiy ustunliklar sifatida qayd etiladi. Muallif investitsion muhitni yaxshilash uchun huquqiy barqarorlik, korrupsiyaga qarshi mexanizmlar va davlat xizmatlarining raqamlashtirilishini taklif qiladi. Shuningdek, sarmoyadorlar uchun kafolatli himoya tizimini kuchaytirish zarurligi alohida ta'kidlanadi.

Berdiyarov va hammualliflar (2024) o'zining *"The impact of foreign investment and tax-based governance on the economy of Uzbekistan"* nomli tadqiqot ishida xorijiy investitsiyalar va soliq siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni empirik tahlil qiladi. Tadqiqotda 2020–2024 yillar oralig'idagi panel ma'lumotlardan foydalanilib, FDI oqimining iqtisodiy o'sish sur'atlariga ijobiy ta'siri aniqlangan. Mualliflar soliqqa oid rag'batlar va imtiyozlar xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilishda muhim o'rin tutishini ko'rsatgan. Xulosa sifatida, investitsiya siyosatida soliq boshqaruvini soddalashtirish va shaffoflikni ta'minlash zarurligi ta'kidlanadi.

Akishova (2024) o'zining *"The Emerging Hub for Foreign Investment in Central Asia: Uzbekistan's evolution into a prominent investment site"* nomli tadqiqot ishida O'zbekistonning Markaziy Osiyoda investitsiya markaziga aylanish jarayonini o'rganadi. Muallif davlat siyosati, huquqiy islohotlar, transport-logistika infratuzilmasi va mintaqaviy integratsiyaning xorijiy sarmoyaga ta'sirini tahlil qilgan. Ishda global geosiyosiy omillar va xalqaro hamkorlikning ahamiyati yoritilgan. Xulosa qilib, Akishova O'zbekistonni "investitsiya

platformasi” sifatida mustahkamlash uchun institutsional islohotlar va barqaror siyosiy muhit zarurligini ta’kidlaydi.

Abdumamidov (2023) o’zining “Methods of developing foreign direct investments to our country and the strategic directions” nomli tadqiqot ishida O’zbekistonda to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalarni rivojlantirishning nazariy va amaliy yo’nalishlarini yoritadi. Muallif investitsiya siyosatini takomillashtirish uchun erkin iqtisodiy zonalar, soliq imtiyozlari hamda byurokratik to’siqlarni kamaytirish zarurligini ko’rsatadi. Tadqiqotda xorijiy investorlar uchun kafolatlar tizimini mustahkamlash va sarmoya jarayonlarini raqamlashtirish taklif etilgan. Xulosa qilib, O’zbekiston uchun eng muhim vazifa sarmoya muhitining barqarorligi va ishonchliligini ta’minlash ekani qayd etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotning metodologiyasi xorijiy sarmoyalarni jalb qilish tizimini takomillashtirish va mavjud muammolarni hal etish mexanizmlarini ilmiy asosda o’rganishga qaratilgan. Tadqiqotda tizimli yondashuv, iqtisodiy-tahliliy, komparativ (taqqoslash), induktiv va deduktiv usullar, shuningdek ekspert baholash usuli qo’llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O’zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimini ta’minlashda yetakchi davlatlarning hissasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatning qulay geoiqtisodiy joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi va ichki bozor salohiyati ko’plab yirik investorlar uchun jozibador omil bo’lib xizmat qilmoqda. Shu bois, qator davlatlar O’zbekiston bilan uzoq muddatli strategik hamkorlikni yo’lga qo’yib, iqtisodiy sheriklikni izchil rivojlantirmoqda.

Xususan, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Saudiya Arabistoni, Turkiya Respublikasi hamda Birlashgan Arab Amirliklari O’zbekistonda to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalarning asosiy qismini ta’minlovchi mamlakatlar sifatida ajralib turadi. Ular nafaqat moliyaviy resurslar kiritmoqda, balki ilg’or texnologiyalarni, boshqaruv tajribasini va global bozor tarmoqlariga chiqish imkoniyatlarini ham olib kirib, mahalliy iqtisodiyotning modernizatsiyasiga sezilarli hissa qo’shmoqda.

Quyidagi jadvalda ushbu davlatlarning O’zbekiston iqtisodiyotiga qo’shgan ulushi va investitsion faolligi ko’rsatkichlari aks ettirilgan bo’lib, u mamlakatlararo iqtisodiy hamkorlikning dinamikasini yaqqol namoyon etadi.

1-jadval

O’zbekistonga xorijiy investitsiyalar kiritishda yetakchi davlatlar

№	Davlat	Investitsiyaning ulushi / tavsifi
1	Xitoy	25,6 % ga yaqin FDI hissasi
2	Rossiya	13,4 % hissaga ega davlatlardan biri
3	Saudiya Arabistoni	~7,9 % hissasi bilan kirituvchi
4	Turkiya	~6,4 % hissasi bilan
5	BAA (BAƏ)	~5,8 % hissasi

Manba: Muallif tomonidan ilmiy izlanishlar natijasida shakllantirildi.

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, Xitoy O’zbekistonga eng yirik investor bo’lib, umumiy FDI oqimining chorak qismidan ortig’ini ta’minlamoqda. Rossiya ham mintaqaviy hamkor sifatida ikkinchi o’rinni egallab, sanoat va energetika sohalariga faol sarmoya kiritmoqda. Saudiya Arabistoni esa, asosan, energetika va infratuzilma loyihalarida faoliyat olib bormoqda. Turkiya va BAAning investitsiya ulushi nisbatan kichik bo’lsa-da, ular mamlakatda ko’plab ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish loyihalarini amalga oshirmoqda.

Bu davlatlar tomonidan jalb etilayotgan investitsiyalar O’zbekistonda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, eksport salohiyatining oshishi va yangi ish o’rinlari yaratilishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, investitsiya portfelini yanada diversifikatsiya qilish, boshqa

rivojlangan davlatlardan ham kapital oqimini ko'paytirish mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish sohasidagi yutuqlar 2024-yilda o'z navbatidagi rekord ko'rsatkichlariga erishdi. O'zbekiston Milliy axborot agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda 34,8 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilib, o'sish 1,6 barobarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar mamlakatning investitsion muhitini yaxshilash bo'yicha olib borilgan izchil siyosatning samaradorligini ko'rsatmoqda. 50 ta shahar va tumanlarda 100 million dollardan ortiq xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilgani hududiy rivojlanish va investitsiyalar geografik taqsimotining kengayganini bildiradi (UNCTAD, 2023).

Investitsiya va tashqi savdo vazirligi tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga asosan, 2024-yilda iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1,3 baravar ko'payib, 36 milliard dollardan oshgan. Xalqaro investitsiya tashkiloti (Invexi)ning tahlillariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston Respublikasi kapital jalb qilishda muhim muvaffaqiyatlarga erishib, investitsiyalar o'tgan yilga nisbatan 127,6% ga oshgan (OECD, 2022). Bu o'sish ko'rsatkichlari mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi va investitsion muhitning yaxshilanishidan dalolat beradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida turli mamlakatlar tajribasini o'rganish O'zbekiston uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Har bir davlat o'zining iqtisodiy sharoiti, siyosiy tizimi hamda global iqtisodiy tizimdagi o'rnidan kelib chiqib, sarmoya jalb qilishning o'ziga xos mexanizmlarini ishlab chiqqan. Masalan, ayrim davlatlar investorlarga huquqiy kafolatlar va xalqaro arbitraj tizimi orqali ishonch yaratgan bo'lsa, boshqalar soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar hamda soddalashtirilgan ruxsatnomalar tizimi orqali xorijiy kapitalni jalb etishga e'tibor qaratgan.

2-jadval.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha xorijiy tajriba va O'zbekistonga tatbiq etish imkoniyatlari

Davlat	Asosiy amaliy mexanizmlar	Natijalar	O'zbekistonga tatbiq etish mumkin bo'lgan jihatlar
Qozog'iston	- Astana International Financial Centre (AIFC) – xalqaro huquq asosida ishlovchi moliya markazi. - Erkin iqtisodiy zonalar va soliq imtiyozlari.	2023 yilda 13 mlrd USD FDI jalb qilingan, Markaziy Osiyoda eng yuqori ko'rsatkich.	Toshkentda yoki viloyatlarda xalqaro arbitraj tizimiga ega moliya markazini yaratish.
Turkiya	- Erkin iqtisodiy zonalar (Free Zones). - Eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rag'batlantirish. - Soliq va bojxona imtiyozlari.	2023 yilda 10 mlrd USD FDI. Free Zones orqali sanoatning eksport ulushi 25% dan oshgan.	O'zbekiston erkin zonalarini eksportga yo'naltirilgan model asosida kuchaytirishi mumkin.
Polsha	- Yevropa Ittifoqi grantlari va fondlarini samarali jalb qilish. - "Invest in Poland" agentligi orqali investorlarni to'liq qo'llab-quvvatlash.	2022 yilda 25 mlrd USD FDI oqimi. Sharqiy Yevropada eng jozibador davlatlardan biri.	"Invest in Uzbekistan" agentligini xalqaro standart darajasiga olib chiqish, grantlarni jalb qilish.
Singapur	- "One-stop shop" tizimi to'liq raqamlashtirilgan. - Investor uchun shaffof soliq tizimi. - Erkin savdo shartnomalari orqali global integratsiya.	Osiyoda eng ko'p FDI jalb qiluvchi davlatlardan biri: 2023 yilda 141 mlrd USD.	O'zbekistonda litsenziya va ruxsatnoma jarayonlarini to'liq raqamlashtirish.
Xitoy	- Maxsus iqtisodiy zonalar (SEZ) – Shenzhen modeli. - Davlat infratuzilma investitsiyalarini hamkorlikda amalga oshirish. - Innovatsiya va texnologiya klasterlari.	Shenzhen SEZ tajribasi bilan 40 yilda dunyoning eng yirik iqtisodiy hududiga aylangan.	O'zbekistonda texnoparklar va sanoat klasterlarini rivojlantirish, "yashil investitsiyalar"ni jalb qilish.

Manba: Muallif tomonidan ilmiy izlanishlar natijasida shakllantirildi.

Shu jihatdan qaraganda, O'zbekiston uchun xorijiy tajribani chuqur tahlil qilish sarmoyalarni jalb etishning eng samarali mexanizmlarini aniqlash, ularni milliy iqtisodiy muhitga moslashtirish va amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Quyidagi jadvalda xorijiy

investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb etgan beshta mamlakat Qozog'iston, Turkiya, Polsha, Singapur va Xitoy Xalq Respublikasi tajribasi yoritilib, ularning iqtisodiy siyosatdagi samarali yondashuvlari tahlil qilingan.

2- jadvaldan ko'rinib turibdiki, har bir davlatning o'ziga xos yondashuvi mavjud. Masalan, Qozog'iston xalqaro moliya markazi va arbitraj tizimi orqali investitsiyalarni jalb qilsa, Turkiya erkin zonalarini eksportga yo'naltirish orqali natija bermoqda. Polsha Yevropa Ittifoqi grantlari va investitsiya agentliklari yordamida FDI oqimini ko'paytirgan bo'lsa, Singapur raqamlashtirilgan "bir darcha" tizimi orqali investitsiya muhiti shaffofligini ta'minlagan. Xitoy esa maxsus iqtisodiy zonalar va innovatsion klasterlar orqali dunyodagi eng yirik investitsiya markaziga aylangan.

O'zbekiston ushbu tajribalardan samarali jihatlarni moslashtirish orqali investitsion jozibadorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Xususan, xalqaro moliya markazini yaratish, erkin iqtisodiy zonalarini ixtisoslashtirish, raqamlashtirilgan xizmatlarni rivojlantirish va innovatsion texnoparklarni kengaytirish mamlakatning uzoq muddatli investitsiya strategiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston xorijiy investitsiyalarni faol ravishda jalb etayotgan bo'lsa-da, ushbu jarayonni cheklab turgan bir qator tizimli muammolar hali ham mavjud. Eng avvalo, huquqiy muhitning barqaror emasligi, sud tizimidagi ishonch masalalari, hamda infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi investorlar uchun muayyan xavflarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, byurokratik to'siqlar, ruxsatnomalar olishdagi murakkabliklar va malakali mutaxassislar tanqisligi ham investitsiya muhitining raqobatbardoshligini pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

3-jadval

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi asosiy muammolar va ularga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar

№	Asosiy muammo	Sabablari	Oqibatlari	Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar
1	Huquqiy va institutsional barqarorlikning yetarli emasligi	Qonunlar tez-tez o'zgarishi, ayrim normativ-huquqiy hujjatlarning bir-biriga zidligi	Investor ishonchi pasayishi, uzoq muddatli loyihalarga qiziqishning kamayishi	2019-yilda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, 10 yillik stabilizatsiya kafolati joriy etildi
2	Sud-huquq tizimidagi muammolar	Sud ishlarining cho'zilishi, arbitraj mexanizmlarining samarador emasligi	Investorlar uchun huquqiy risklarning oshishi	Xalqaro arbitraj mexanizmlarini joriy etish, iqtisodiy sudlar faoliyatini modernizatsiya qilish
3	Infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi	Energiya, transport-logistika tizimidagi cheklovlar	Loyiha qiymatining ortishi, investor xarajatlari ko'payishi	Davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosida energetika va transport loyihalarini amalga oshirish
4	Byurokratik to'siqlar va ruxsatnoma jarayonlarining murakkabligi	Litsenziya va ruxsatnomalar olishdagi ko'p bosqichli tartiblar	Vaqt xarajatlarning ortishi, ayrim loyihalarining to'xtab qolishi	"Yagona darcha" tizimi joriy etildi, davlat xizmatlari elektronlashtirilmoqda
5	Mahalliy kadrlar malakasining yetarli emasligi	Innovatsion va yuqori texnologiyali sohalarida tajriba kamligi	Xorijiy investorlarning qo'shimcha xarajatlari, kadrlarni chetdan jalb qilishga majbur bo'lish	Kadrlar tayyorlash milliy dasturlari, xorijiy universitet filiallarini ochish, IT-parklar va startap markazlarini rivojlantirish

Manba: Muallif tomonidan ilmiy izlanishlar natijasida shakllantirildi.

Shunga qaramay, hukumat tomonidan bu muammolarni bartaraf etish va investitsion muhitni yaxshilash maqsadida qator islohotlar va institutsional chora-tadbirlar amalga

oshirilmoqda. Xususan, litsenziyalash tartiblarini soddalashtirish, “bir darcha” tizimini kengaytirish, xalqaro arbitraj mexanizmlarini joriy etish va investorlarga soliq imtiyozlarini taqdim etish orqali sarmoyadorlar uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda.

Quyidagi 3-jadvalda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar batafsil yoritilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida muammolar ko'proq tizimiy va institutsional xarakterga ega. Masalan, huquqiy kafolatlar mustahkamlanmagan davrda investorlarning uzoq muddatli loyihalarga kirish ishtiyoqi pasaygan bo'lsa, so'nggi yillarda “Investitsiyalar to'g'risida”gi Qonun va xalqaro arbitraj mexanizmlarining joriy etilishi bu borada ijobiy siljishlarni ta'minladi. Shuningdek, infratuzilma va kadrlar masalasidagi muammolarni hal qilish uchun PPP asosida yirik loyihalarning yo'lga qo'yilishi va xorijiy universitet filiallarining ochilishi investorlarga qo'shimcha kafolat va imkoniyatlar yaratmoqda. Demak, mavjud muammolarning bartaraf etilishi investitsion muhitni yanada jozibador qilish hamda O'zbekistonni mintaqadagi yirik investitsiya markazlaridan biriga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mamlakatning modernizatsiya jarayonida hal qiluvchi o'rin tutadi. Xorijiy sarmoyalar nafaqat moliyaviy resurslar oqimini ta'minlamoqda, balki ilg'or texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini ham olib kirmoqda. So'nggi yillarda hukumat tomonidan yaratilayotgan qulay investitsion muhit, soliq va bojxona imtiyozlari, shuningdek, erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati O'zbekistonning sarmoyadorlar uchun jozibadorligini oshirdi.

Shu bilan birga, mavjud tizimli muammolar huquqiy barqarorlikning yetishmasligi, infratuzilmaning rivojlanmaganligi va malakali kadrlar tanqisligi kabi omillar investitsiya oqimlarini to'liq hajmda jalb etishga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, xorijiy mamlakatlar tajribasini milliy sharoitga moslashtirish, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish va investorlar uchun kafolat tizimini kuchaytirish O'zbekistonning investitsion siyosatini yanada samarali va raqobatbardosh qilishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda xorijiy sarmoyalarni jalb etishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Davlat siyosatining ochiqlikka yo'naltirilgani, investitsiya muhitining liberallashtirishi, erkin iqtisodiy zonalarning kengaytirilishi va soliqqa oid islohotlar xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoit yaratdi. Natijada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi barqaror o'sib, sanoat, energetika, transport va axborot texnologiyalari kabi tarmoqlarda yangi loyihalar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, investitsiyalarni jalb etish jarayonida bir qator tizimli muammolar hamon mavjud. Bular qatoriga huquqiy barqarorlikning yetarli emasligi, sud tizimidagi ishonch muammolari, byurokratik to'siqlar va malakali kadrlar yetishmovchiligi kiradi. Ayrim hollarda xorijiy sarmoyadorlar uchun kafolat tizimlari va investitsiya himoyasi mexanizmlari to'liq ishlamayapti. Shu sababli, xorijiy sarmoya siyosatini yanada samarali yuritish uchun boshqaruv mexanizmlarini raqamlashtirish, ruxsat berish jarayonlarini soddalashtirish hamda xalqaro arbitraj tizimlari bilan integratsiyani kuchaytirish lozim.

Kelgusida xorijiy sarmoyalarni jalb qilish tizimini takomillashtirish uchun davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, investitsion loyihalarni milliy va xalqaro reyting tizimlariga kiritish, shuningdek, “bir darcha” tamoyili asosida xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, har bir tarmoq bo'yicha sarmoya samaradorligini baholovchi indikatorlar joriy etilishi, investorlarga axborot xizmatlarini onlayn platformalar orqali taklif etish ham investitsion muhitning jozibadorligini oshiradi. Shu orqali O'zbekiston mintaqada xorijiy sarmoya uchun eng ishonchli va barqaror hamkor sifatida o'z mavqeini mustahkamlashi mumkin.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Farmon (2022). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60. Lex.uz orqali olindi: <https://lex.uz/docs/5841063>

Farmon (2019). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining. "Investitsiya muhitini yanada yaxshilash va xorijiy investorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5635. Lex.uz orqali olindi: <https://lex.uz/docs/4466474>

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (2024). Investitsion muhit va xorijiy investitsiyalar oqimi bo'yicha yillik hisobot – 2024. Toshkent.

Jahon banki. (2024). Uzbekistan Economic Update: Transition to Market Economy. Washington, D.C.: World Bank Group.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF). (2023). Republic of Uzbekistan: Staff Report for the 2023 Article IV Consultation. Washington, D.C.: IMF Publication Services.

United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2023). World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All. Geneva: United Nations.

OECD. (2022). Investment Policy Review of Uzbekistan 2022. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.

Amonboev, (2024). Makhammadsidik. "Analysis of foreign investments absorbed in Uzbekistan in 2022-2023 and their role in the economy." Nordic Studies in Academic Research (Nordic Press), 2024.

Anvarovich, N. E. (2023). Key factors attracting foreign investment to Uzbekistan. *Journal of International Economics and Finance Research*, Vol. 5(2), pp. 47–56. Nordic University Research Publishing.

Berdiyarov, B., Akhmedov, S., & Kadirova, N. (2024). The impact of foreign investment and tax-based governance on the economy of Uzbekistan. *International Journal of Economic Development and Policy Studies*, Vol. 6(1), pp. 88–97. Nordic University Research Publishing.

Akishova, S. (2024). The Emerging Hub for Foreign Investment in Central Asia: Uzbekistan's evolution into a prominent investment site. *Central Asian Economic Review*, Vol. 9(2), pp. 112–124. Cambridge Scientific Press.

Abduxamidov, A. A. (2023). Methods of developing foreign direct investments to our country and the strategic directions